

## BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKLARSIZ MUNOSABATDA BO'LISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Mansurov Iskandarbek Abdullo o'g'li*

*Andijon viloyati Paxtaobod tumani MMTB ga qarashli  
36- umumiy o'rta ta'lim maktabning amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada bolalarga nisbatan turli ko'rinishdagi zo'ravonlik, beparvolik, psixologik zo'ravonlik va insoniyatga to'g'ri kelmaydigan maqsadga erishishga qaratilgan boshqa xatti-harakatlar, bolaga og'riq keltiruvchi, uning jismoniy va psixologik sog'lig'i hamda rivojlanishiga zarar yetkazish haqida fikr mulohazalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** zo'ravonlik, zulm, zarar, beparvolik, qat'iylik, o'ziga ishonch, samimiy munosabatlar, mexr.

Butunjahon Sog'liqni saqlash Tashkiloti tomonidan 1999-yilda taklif etilgan quyidagi ta'rifga tayanadi: «Zulm» yoki «bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lish» «...bolaning sog'lig'iga, yashashiga, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiya»ni anglatadi. Demak, xalqaro amaliyotda qabul qilingan «bolaga nisbatan zulm» atamasi o'zida «ehtiyotsiz munosabat» hamda «tashlab qo'yilganlik» tushunchalarini ham o'zida mujassam etadi. O'zbekistonda «bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabat» tushunchasi avvalo qonuniy asosga tayanadi. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga ko'ra, zulm deganda ehtiyotsiz va loqayd munosabatda bo'lish nazarda tutilmaydi. Zulm va loqayd munosabat quyidagicha ta'riflanadi: Bolaga nisbatan zulm – bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko'makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy dahlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy va ruhiy ta'sir ko'rsatishdir. Mazkur ta'rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi.

Bolalarga loqayd munosabatda bo'lish – ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi kishilar, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan bolalarni boqish, tarbiyalash, sog'lom turmush kechirish sharoitlarini yaratish, to'la ma'lumot olish va shu kabilarni ta'minlashga doir o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasliklari. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining turlari

Jismoniy zo'ravonlik – shafqatsizlik va bolaga og'riq keltiruvchi hamda uning sog'lig'i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo'lmagan maqsadga yo'naltirilgan boshqa xatti-harakatlar:

✓ bolaga yetkazilgan har qanday tan jarohati yoki og‘riq berish (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bolani bo‘g‘ish yoki cho‘ktirish)

✓ bolaga tana jarohati yetkazilishiga qarshilik qilmaslik

✓ bolani har qanday jismoniy jazolash – tarsaki, kaltaklash, tahqirlash

✓ bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash

Bola doimiy ravishda e‘tibor va mehrning yetishmasligini his qilib turadi, tahdid va kamsitishlarga duchor bo‘ladi va bu o‘z qadr-qimmatini bilmaslik va o‘ziga ishonchsizlikni oshishiga olib keladi, bularga:

✓ yolg‘on, tahdid, qo‘rqitish, kamsitish, haqorat qilish, so‘kish;

✓ boladan voz kechish, izolyasiya

✓ noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash

✓ bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishni asossiz talab qilish

✓ bolaning me‘yorida rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi ortiqcha homiylik

✓ kattalarning o‘z va‘dalarini bajarmasligi, bolada ishonch tuyg‘usining buzilishi.

Ehtiyotsiz munosabat (befarqlik) – bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatilishga olib keluvchi hayotiy ehtiyojlarni qondirilmasligi:

✓ e‘tiborsiz, qarovsiz qoldirish, xavf ostida qoldirish;

✓ bola ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko‘makka, ta‘limga, muloqotga, rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilmasligi);

✓ hissiy yaqinlikning yo‘qligi (undan voz kechish)

✓ mavjud tahdiddan bolani himoya qila olmaslik (istamaslik)

Ekspluatatsiya – boladan o‘z manfaati yo‘lida foydalanish – og‘ir mehnat, seksual foydalanish, trafik (foydalanish maqsadida bolalarni olib chiqib ketish, sotish). Bola bilan shafqatsiz munosabatning to‘rtta turini ajratadilar:

✓ Shafqatsiz jismoniy munosabat

✓ Jinsiy zo‘ravonlik

✓ Bola ehtiyojlariga e‘tiborsizlik

✓ Psixologik zo‘ravonlik

Shafqatsiz jismoniy munosabat – bolaga yetkazilgan tasodifiy bo‘lmagan har qanday tan jarohati. Bolalar ustidan jinsiy zo‘ravonlik – bola yoki o‘smirdan shaxsiy jinsiy lazzat olish uchun foydalanish. Bola ehtiyojlariga e‘tiborsizlik – ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning 18 yoshga to‘lmagan bolaning asosiy ehtiyojlarini ta‘minlashga surunkali noqodirligi. Psixologik zo‘ravonlik, o‘z navbatida, ikki turda bo‘lishi ham mumkin:

✓ psixologik beparvolik – bu ota-ona yoki parvarishni amalga oshiruvchi shaxslarning bolaga zaruriy ko‘mak, e‘tibor, psixologik himoyani ta‘minlashga qodir emasliklari, unga mehrning yo‘qligi.

✓ psixologik shafqatsiz muomala – kattalar tomonidan bolani tahqirlash, uni kamsitish, xaqoratlash, mazax qilish maqsadida sodir etiladigan surunkali harakat.

Dastlab bolaga zo‘ravonlik namoyon etishning sababi ota-onalarning psixologik og‘ishi deb hisoblandi, keyin diqqat ijtimoiy kontekstga ko‘chirildi, bundan xatar omili otaonaning bolaga zo‘ravonlik munosabatini shartlovchi qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy yakkalanishda yashirin ekanligi haqidagi xulosa kelib chiqadi. So‘ng zo‘ravonlikni otaona va bola o‘rtasidagi munosabatlarning buzilgan interfaol ijtimoiy modeli orqali sharhlashdi.

**Xulosa** o‘rnida inson yashar ekan hayoti davomida juda ko‘p narsalarni o‘rganadi va o‘rganganlarini hayotga tadbiq etadi. Aksariyat insonlar umrini ko‘p qismi uyquga sarflab yuboradilar. Undan qolgan vaqtni gadjet va ijtimoiy tarmoqlarga ketkazishadi. Ulardan foydali maqsadlar ko‘zlansa naqadar yaxshi, buning teskarisi bo‘lsa naqadar ayanchli. Bolaning kelajakda kim bo‘lishi uni bolalikdagi ta‘lim – tarbiyasiga bog‘liq. Rivojlangan asrimizda bolalarga biron narsani o‘rgatish oldingidek qiyin bo‘lmay qoldi, biz berilgan imkoniyatni ko‘rsak va o‘z o‘rnida foydalana olsak bu albatta bizni yutug‘imizdir, faqat bizni emas farzandlarimizni, jamiyat va davlatni yutug‘.bolalar ustidan zo‘ravonlik ularning shaxs sifatida normal rivojlanishiga va o‘zligini anglab yetishiga va jojtimoiy lashuvdan orqada qolishiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hamda kelajakda salbiy oqibatlariga olib keladi. Shuningdek, ular u yoki bu xatar omilining mavjudligi zo‘ravonlikni namoyon etish degani emas, balki uning paydo bo‘lish ehtimoli yoki imkoniyati borligidan qo‘rqib yashaydilar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.Toshkent. TDPU .2004y.
2. E.G‘oziev.Umumiy psixologiya. Toshkent "O‘qituvchi" 2010 y.
3. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiyasi. Toshkent. 1998
4. Adizova T.M.Psixokorreksiya. – Toshkent. Tafakkur.2010.150-b
5. Mahmudova D,A. Psixokorreksiya asoslari. –Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti. 2011. 128-b
6. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent. TDPU,2006.128-b